


QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

ASLIYATDAGI MATNLAR O'QISH JARAYONIGA TA'SIR QILUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI

Xalida Avilova

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

katta o'qituvchisi

email: khalida72@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada asliyatdagi matnlarni o'qish jarayoniga ta'sir qiluvchi asosiy psixologik omillar tahlil qilinadi. Xususan, psixologik to'siqlar, diqqatni jamlash muammolari, motivatsiya yetishmovchiligi va lug'at boyligining cheklanganligi kabi omillar ko'rib chiqiladi. Maqola ingliz tilidagi asarlardan va gazeta maqolalaridan olingan misollar bilan boyitilgan bo'lib, bu jarayonni yanada samarali tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: asliyatdagi matnlar, psixologik omillar, til o'rganish, motivatsiya, diqqatni jamlash, lug'at boyligi, o'qish jarayoni,

PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE PROCESS OF READING AUTHENTIC TEXTS AND WAYS TO OVERCOME THEM

Annotation: This article analyzes the main psychological factors that affect the process of reading authentic texts. In particular, factors such as psychological barriers, concentration problems, lack of motivation, and limited vocabulary are considered. The article is enriched with examples from English works and newspaper articles, which help to understand this process more deeply.

Keywords: authentic texts, psychological factors, language learning, motivation, concentration, vocabulary, reading process.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОЦЕСС ЧТЕНИЯ АУТЕНТИЧНЫХ ТЕКСТОВ, И СПОСОБЫ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ

Аннотация: В данной статье анализируются основные психологические факторы, влияющие на процесс чтения аутентичных текстов. В частности, рассматриваются такие факторы, как психологические барьеры, проблемы с концентрацией внимания, отсутствие мотивации и ограниченный словарный запас. Статья обогащена примерами из англоязычных произведений и газетных статей, которые помогают глубже понять этот процесс.

Ключевые слова: аутентичные тексты, психологические факторы, изучение языка, мотивация, концентрация внимания, словарный запас, процесс чтения.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni chuqur o‘rganish va ularni erkin qo‘llay olish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Til o‘rgatish jarayonida samaradorlikka erishish uchun nafaqat grammatik va leksik bilimlar, balki madaniy kontekstni ham chuqur anglash talab etiladi. Bu borada asliyatdagi matnlar (ya’ni tarjima qilinmagan, muallifning asl tilidagi matnlari) til o‘rgatishning muhim vositasiga aylanmoqda. Asliyatdagi matnlar nafaqat til boyligini kengaytiradi, balki o‘rganilayotgan tilning madaniyati, urf-odati, fikrlash tarzini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, bunday matnlar til o‘rgatuvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, kontekstni anglash kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Shu sababli, zamonaviy til ta’limida asliyatdagi matnlar bilan ishlash muhim va dolzarb masalalardan biri sifatida ko‘rilmoqda.

Biroq, asliyatdagi matnlarni o‘qish va tushunish jarayoni lingvistik, ekstralingvistik, kognitiv hamda psixologik jihatdan murakkab jarayon hisoblanadi. Chet tili o‘rganuvchi talabalarning bunday matnlarni o‘zlashtirishida turli psixologik omillarga e’tibor qaratilishi lozim. Ushbu maqolada asliyatdagi matnlarni o‘qish jarayoniga ta’sir qiluvchi asosiy psixologik omillar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Asliyatdagi matnlarni o‘qish jarayoniga ta’sir qiluvchi psixologik omillarni aniqlash bo‘yicha bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, S.Krashen psixologik to‘siqlar haqida so‘z yuritib, bunday to‘siqlar o‘quvchilarda chet tilida ifodalangan matnlarni o‘qishda qo‘rquv yoki ishonchsizlik hissi paydo bo‘lishi mumkin deb hisoblaydi. Bu, ayniqsa, murakkab grammatik tuzilmalarga ega matnlarni tushunishda kuzatiladi [3]. Masalan, V. Woolf tomonidan yozilgan *“To the Lighthouse”* romani ingliz adabiyotidagi modernistik uslubning yorqin namunalaridan biri bo‘lib, o‘zining murakkab sintaktik tuzilmalari, ichki monologlar usuli va ong oqimi (stream of consciousness) texnikasi bilan ajralib turadi. Ushbu roman talabalarga chuqur tahliliy o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vosita bo‘lsa-da, uni o‘zlashtirish jarayonida bir qator psixologik va lingvistik to‘siqlar yuzaga keladi.

Mazkur roman mutolaasi davomida duch keladigan ayrim psixologik va lingvistik to‘siqlarni ko‘rib chiqishni joiz deb bildik. Birinchidan, asarda qo‘llanilgan uzun va grammatik jihatdan murakkab jumlar talabalar uchun sintaktik tahlilni murakkablashtiradi. Ko‘pincha bitta jumla ichida bir nechta fikr, qarama-qarshi obrazlar yoki zamon shakllari uyg‘unlashgan bo‘lib, bu matnning mazmunini tushunishda chalkashliklarga olib keladi [1].

Ikkinchidan, Woolfning ong oqimi uslubidan keng foydalanishi o‘quvchilarda an’anaviy syujet ketma-ketligiga oid kutgan tasavvurlarni izdan chiqaradi. Bunday uslubda personajlarning ichki fikrlari, xotiralari va hissiyotlari bir-biriga bog‘lanmasdan ifodalanadi, bu esa o‘quvchilardan yuqori darajadagi kontseptual tafakkurni talab etadi [6].

Uchinchidan, roman XX asr boshlaridagi ingliz jamiyati madaniy va ijtimoiy kontekstida yaratilganligi sababli, talabalar ba’zi ijtimoiy rollar, tarixiy ishoralar yoki madaniy hodisalarni tushunishda qiyinchilikka duch keladilar. Bu esa kontekstual tushunmovchilikka olib keladi [5].

Nihoyat, o‘quvchilarda asarni o‘zlashtirish jarayonida o‘z kuchiga ishonmaslik, tushunmovchilikdan qo‘rquv kabi affektiv (psixologik) to‘siqlar paydo bo‘lishi mumkin. Bunday holat, ayniqsa, tilni yangi o‘rganayotgan talabalar orasida tez-tez uchraydi va ularning motivatsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [8].

Shunday qilib, *To the Lighthouse* romanini tahlil qilish va o‘zlashtirish talabalarni lingvistik va madaniy jihatdan chuqur bilim olishga undasa-da, bu jarayonda yuzaga keladigan psixologik va grammatik to‘siqlar o‘qituvchidan maxsus yondashuv, qo‘llab-quvvatlovchi metodik vositalardan foydalanishni talab etadi.

Roman, qisqa hikoya kabi badiiy asarlar o‘qishdan tashqari publitsistik janrda yozilgan matnlar ham talabalarda ayrim qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Masalan, *The Guardian* yoki *The New York Times* kabi ommaviy gazetalardagi maqolalar ham murakkab jumla tuzilmalari va rasmiy tildan foydalanishi sababli mazkur jurnallardagi maqolalarni tushunishda bir qancha murakkablik tug‘dirishi mumkin.

H.Brown psixologik omillardan **diqqatni jamlash muammolari** haqida so‘z yuritib, “diqqatning tez chalg‘ishi va konsentratsiyaning yetishmovchiligi matnni tushunishni qiyinlashtirishi va bu holat ayniqsa, katta hajmdagi yoki murakkab tuzilishga ega matnlar bilan ishlashda namoyon bo‘ladi [2]. Masalan, akademik matnlarni o‘qish jarayonida ilmiy maqolalar va tadqiqot ishlari ilmiy yondashuv va kuchli diqqatni talab qiladi, chunki bu turdagi matnlar maxsus terminlar va mantiqiy tahlillar bilan boyitilgan bo‘ladi. Ammo ko‘plab o‘quvchilar va talabalar bunday matnlarni to‘liq tushunishda diqqatni jamlay olmaslik, konsentratsiyaning yetishmovchiligi yoki tez chalg‘ish kabi muammolarga duch keladilar.

Kain va Oakhill tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, konsentratsiya darajasining pastligi o‘quvchining matnni tahlil qilish, asosiy g‘oyalarni ajratib olish va mazmuniy bog‘lanishlarni anglash jarayonlarini sezilarli darajada sekinlashtiradi [3]. Ayniqsa, akademik matnlar, ya’ni ilmiy maqolalar va tadqiqot ishlari, yuqori darajadagi diqqat va kognitiv e’tiborni talab qiladi, chunki bunday matnlar odatda maxsus terminologiya, murakkab sintaktik tuzilmalar va mantiqiy-falsafiy tahlillar bilan boyitilgan bo‘ladi [7].

Bundan tashqari, zamonaviy raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi bilan inson diqqatining davomiyligi qisqarganligi kuzatilmoqda. N.Carr o‘z tadqiqotlarida inson miyasi internet muhitidagi tez o‘zgaruvchan ma’lumot oqimiga moslashayotgani sababli, uzun matnlarga diqqatni jamlash qobiliyati pasayib borayotganini ta’kidlaydi [4]. Bu holat, ayniqsa, mutolaa madaniyati sust bo‘lgan muhitda tahsil olayotgan talabalar orasida yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, diqqatning uzluksiz taqsimlanmasligi va tez-tez chalg‘ituvchi omillarning mavjudligi (masalan, telefon, ijtimoiy tarmoqlar, fon shovqinlari) o‘quvchilarning matn bilan chuqur ishlashiga to‘sqinlik qiladi [9]. Bu esa nafaqat matnning yuzaki o‘qilishiga olib keladi,

balki asosiy g‘oya va mantiqiy bog‘liqliklarning tushunilmay qolishiga ham sabab bo‘ladi. Shu sababli, ta’lim jarayonida diqqatni boshqarish strategiyalarini o‘rgatish, matn tahlil qilish ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish, va murakkab matnlarni qismlarga ajratib o‘rganish kabi usullar talabalar uchun samarali bo‘lishi mumkin.

Yana bir qator olimlar psixologik omil sifatida **motivatsiya va qiziqishning pasayishi** deya ko‘rsatadilar. E.Desi va R.Ryanlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra “til o‘rganuvchilarning motivatsiyasi past bo‘lsa, ularning matnni tushunish darajasi ham pasayadi. Agar matn talabalarga qiziqarli bo‘lmasa, uni o‘qish jarayoni sekinlashadi va samaradorligi pasayadi”[2]. Masalan, til o‘rganuvchilar uchun *Gone by the Wind* kabi klassik asarlar qiziqarli bo‘lishi mumkin, lekin *Beowulf* yoki *Paradise Lost* kabi qadimiy asarlar matni murakkabligi tufayli qiziqishning yo‘qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuningdek, *National Geographic* kabi nashrlarning tabiiy fanlar yoki tarixga oid maqolalari ham o‘quvchilarning shaxsiy qiziqishiga bog‘liq ravishda motivatsiyaga ta’sir qilishi mumkin. Demak, matnning murakkabligi hamda mavzuga qiziqishining past darajada ekanligi o‘quvchilarning motivatsiya va qiziqishining pasayishiga olib keladi.

Til to‘siqlari va lug‘at boyligining cheklanganligi ham muhim psixologik omillar qatoridan o‘rin egallagan. I.Nation ta’kidlashicha “O‘quvchilar yetarlicha lug‘at boyligiga ega bo‘lmasa, aslyatdagi matnlarni o‘qish qiyinlashadi. Bu o‘z navbatida tushunish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi”[4]. Bunga misol sifatida, William Shekspir asarlari, ayniqsa *Hamlet*, juda ko‘p eski inglizcha so‘zlar va murakkab sintaktik tuzilmalarga ega bo‘lib, bu o‘z navbatida o‘quvchilarga matn mazmunini tushunishda qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Shuningdek, *Financial Times* va *The Wall Street Journal* kabi moliyaviy gazetalardagi maqolalar maxsus iqtisodiyotga oid terminlarga boy bo‘lgani uchun matn mazmunini ochishni yanada qiyinlashtirishi mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Psixologik to‘siqlar, diqqatni jamlash muammolari, motivatsiya va qiziqishning pasayishi, til to‘siqlari hamda lug‘at boyligining cheklanganligi kabi yuqorida fikr yuritilgan psixologik omillar o‘rganilishi natijasida quyidagi bartaraf etish yollarini tavsiya etamiz:

Qo‘rquvni yengish va ishonchni oshirish: Til o‘rganuvchilarni bosqichma-

bosqich murakkab matnlarga tayyorlab borish orqali amalga oshirish mumkin. Bunda talabalarga boshlang‘ich bosqichda Roald Dahl yoki Mark Twain kabi yozuvchilarning asarlaridan boshlash, keyin esa William Shekspir yoki Charles Dickens kabi yozuvchilarning murakkabroq tilda yozilgan asarlari mutolaasiga o‘tish tavsiya etiladi. Shuningdek, mazkur muammoni bartaraf etishda o‘quvchilarga muvaffaqiyatga erishish hissini berish uchun dastlab sodda matnlar bilan ishlash, jamoaviy muhokamalar orqali o‘z fikrini erkin ifoda etish imkoniyatini yaratish, O‘quvchilarni dastlab soddaroq gazeta maqolalarini o‘qishga o‘rgatish, masalan, *BBC Learning English* yoki *The Guardian Lifestyle* bo‘limlaridan boshlab, keyinchalik murakkab maqolalarga o‘tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek, diqqatni jamlash bo‘yicha dars mashg‘ulotlar olib borilishi

juda muhim hisoblanadi. Bunda, katta hajmdagi matnlarni qismlarga bo‘lib o‘qish va har bir qism bo‘yicha turli muhokamalar o‘tkazish, hamda matn bo‘yicha asosiy tushunchalarni ajratib yozish kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Charles Dickensning “David Copperfield” asarini o‘qiyotganda, asosiy mavzular va tushunchalar bo‘yicha diagrammalar tuzish, voqealarni xronologik ket-ketlikda joylashtirish kabi topshiriqlar bilan ishlash talab etiladi. Shu bilan birga, talabalarga vaqt taqsimoti, ayniqsa mustaqil ta’lim vaqtini to‘g‘ri tashkil etish bo‘yicha maslahat va tavsiyalar berib borish darkor.

O‘qish jarayonida motivatsiyaning o‘rni juda muhimdir. Shu jihatdan, **talabalarning motivatsiyasini oshirish uchun** ularga qiziqarli va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan matnlarni taqdim etish, o‘qish jarayonini interaktiv usullar bilan boyitish (masalan, muhokama, test va o‘yinlar orqali) kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Masalan, o‘quvchilar qiziqishini inobatga olgan holda detektiv adabiyot yoki ilmiy-fantastika janridagi asarlarni tanlash mutolaa jarayoniga ijobiy ta’sir o‘tkazadi.

XULOSA

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda asliyatdagi matnlarni o‘qish jarayonida uchraydigan psixologik omillar o‘quvchilarning xorijiy til o‘rganish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi deb hisoblaymiz. Ushbu omillarni bartaraf etishda individual yondashuv, mashg‘ulotlarda o‘qishga bo‘lgan motivatsiyani oshirishga ahamiyat qaratish va interaktiv metodlardan foydalanish zarur. Shuningdek, talabalarga ijtimoiy va psixologik qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratish katta ahamiyat kasb etadi. Bunday muhitni yaratishda jamoaviy ishlashga, bu orqali o‘quvchilar o‘zlarini erkin his qiladigan ochiq muloqot imkoniyatlarini yaratish, guruh ishlari va muhokamalar yordamida ularning o‘zaro ishtirokini rag‘batlantirish lozim. Bundan tashqari, o‘qituvchilar dars jarayonida tengdosh talabalar tomonidan bir-biriga nisbatan ijobiy fikr-mulohazalar berish mexanizmlaridan foydalanish o‘quvchilarning ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bradshaw, D. (Ed.). (2007). *The Cambridge companion to Virginia Woolf* (2nd ed.). Cambridge University Press.
2. Brown, H. D. (2000). *Principles of language learning and teaching*. Pearson Education.
3. Cain, K., & Oakhill, J. (2006). Profiles of children with specific reading comprehension difficulties. *British Journal of Educational Psychology*, 76(4), 683–696. <https://doi.org/10.1348/000709905X6769>
4. Carr, N. (2010). *The shallows: What the internet is doing to our brains*. W. W. Norton & Company.
5. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). *Intrinsic motivation and self-determination in human behavior*. Springer Science & Business Media.